

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEVA NILUFAR G‘ULOMOVNA**

**UILYAM FOLKNER ILK IJODIDA JANR XILMA-XILLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philology**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Jumayeva Nilufar G‘ulomovna**

Uilyam Folkner ilk ijodida janr xilma-xilligi.....3

**Jumaeva Nilufar Gulomovna**

Diverse Genres in William Faulkner’s early works.....23

**Жумаева Нилуфар Гуломовна**

Жанровое разнообразие в ранних произведениях Уильяма Фолкнера...41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEVA NILUFAR G‘ULOMOVNA**

**UILYAM FOLKNER ILK IJODIDA JANR XILMA-XILLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.1.PhD/Fil1119 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Qarshibayeva Uljan Davirovna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Jo'raeva Malohat Muhammadovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Jalilova Lola Jalilovna  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «21» oktabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/370 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «07» oktabr kuni tarqatildi.

(2023-yil «07» oktabr dagi 23-27 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**M.M. Jo'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon adabiyotshunosligida adabiy tur va janrlar xilma-xilligi, tuzilishi, rivoji, taraqqiyoti, tipologiyasi masalalari, xususan, XX asr Amerika adabiyotida yuz bergan janriy, shakliy-uslubiy o'zgarishlarni tadqiqi masalalariga qiziqish ortib bormoqda. Badiiy adabiyotda interdiskursivlik va intertekstuallik prinsiplarining ustuvorligini, voqea-hodisalar mantiqiy zanjirini tarkib toptirishda asarning qaysi janrda yozilganligi, davr va muhit vujudga keltirgan omillar, ijodkorlarning asarlarini odam va olam munosabatlari rakursida kuzatish, mashhur adiblar Teodor Drayzer, Jek London, Ernest Xeminguey, Jon Steynbeklar qatorida Uilyam Folkner she'rlari, hikoyalari hamda romanlarining janriy xususiyatlarini tadqiq qilish, adabiy janrlar harakati mantig'i, taraqqiyot tadrijini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiy janrlar takomili masalasi, XX asr boshlari Amerika nasrida shakliy-uslubiy yangilanishlar, hayot materialining, tasvir uslubiy mushtarakliklari asosiy omillarining real talqini, Uilyam Folkner poetik uslubining shakllanish jarayoni, muallif hikoyalari va romanlarining badiiy xususiyatlari tahlili, inson va jamiyat munosabatlari talqinining ijtimoiy-psixologik omillari, badiiy-uslubiy yangilanishlar, qahramonlar tasviri, obraz yaratish va uni tasvirlash mahoratini aniqlash adabiyotshunoslik sohasining ilmiy talqin doirasini kengaytirish, tarixiy asarlarda badiiy zamon konsepsiyasini shakllantirish talqiniga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Shu doirada Uilyam Folknerning mukammal ijod namunalarini yoritish, uning lirik, prozaik, dramatik asarlari xilma-xilligi o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-kontseptual bog'lanishlarni, yozuvchi ijodidagi avtobiografik, ijtimoiy-psixologik, gotik va detektiv uslubida yozilgan romanlarining tadrijiy taraqqiyotini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning janriy-uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"<sup>1</sup> darajasida yuksalib, milliy adabiyotimizda jahon adabiyoti badiiy tajribalari bilan bo'ylasha oladigan asarlar tahlili va tadqiqiga katta ahamiyat berila boshlandi. Ularga xos mushtarak va individual jihatlarni yoritishga qiziqish kuchaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda jahon va milliy adabiyotimizda badiiy asarlarning janr xususiyatlari alohida e'tiborni tortadi. Ularni har bir davr adabiyotiga xos janrlarini tizim sifatida o'rganish esa badiiy asar syujeti va qahramonlari hayoti masalasining nazariy asoslari haqidagi tushunchalarni boyitishga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>Mirziyoev SH. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. - Toshkent, 2017. - 4 avgust.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida Uilyam Folkner asarlarini o‘rganish o‘tgan asrda boshlangan edi. O‘tgan yillarda muallif hikoyalari va romanlarining badiiy xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan yuzlab maqola va tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, jahon adabiyotshunosligida Klint Bruks, Maykl Milgeyt, Olga Vikeri, Jozef Blotner, Erik Sandarg<sup>2</sup> tadqiqotlarida Folkner asarlari turli aspektlarda o‘rganilgan. Samuel L. Delleyr<sup>3</sup> Uilyam Folknerning “Shovqin va g‘azab” romanini o‘qishdagi muammolarni, Jon Stiven Laros<sup>4</sup> Uilyam Folkner va Marsel Prust memuar romanlarida vaqtning o‘ziga xos talqinlarini qiyosiy tahlil qilgan. Enn Blayt Jo<sup>5</sup> Uilyam Folknerning “Shovqin va g‘azab” romanini kompyuterlashtirilgan stilistik tahlilini o‘rgangan, I.V Dubovik<sup>6</sup> tadqiqot ishida Folknerning 1930-1940-yillardagi asarlarining epik janrga bog‘liqlik jihatlarini tahlil qilgan.

---

<sup>2</sup> Brooks Cleanth “William Faulkner, The Yoknapatawpha Country” Louisiana State University Press, Baton Rouge 1990. – P. 311-312. -518p; Millgate, Michael. The Achievement of William Faulkner. Athens: U of Georgia P, 1989. – P.217; Olga W. Vickery, The Novels of William Faulkner: A Critical Interpretation (Rev. ed.; Baton Rouge: Louisiana State University Press, 1964.-P10-11; Blotner, Joseph. Faulkner: A Biography. One-volume edition. - University Press of Mississippi, Jackson, 2005.-P. 778; Sandarg, Eric, "Faulkner's Stylistic Difficulty: A Formal Analysis of "Absalom, Absalom!." Dissertation, Georgia State University, 2017. – P. 166.

<sup>3</sup> Samuel L. Dallaire Reading trauma in William Faulkner’s the sound and the fury: beyond mimesis and anti-mimesis a thesis. The Faculty of the Department of English, Sam Houston State University, May, 2021. – P. 135.

<sup>4</sup> Larose, John Stephen, “Memory, Time and Identity in the Novels of William Faulkner and Marcel Proust.”. LSU Historical Dissertations and Theses. 2000. - P 183.

<sup>5</sup> Jo Ann Blythe, A computerized stylistic analysis of William Faulkner’s The Sound and The Fury, B.A. thesis, Texas Tech University, 1990. – P. 116.

<sup>6</sup> Дубовик И.В. Взаимодействие эпических жанров в творчество У.Фолкнера (конец 30-х и начало 40-х гг.) – Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тбилиси, 1990. – 17 с.

Rus olimlaridan I.A. Delazari<sup>7</sup> o'z tadqiqotini Folkner asarlari tuzilishidagi aksiologik modellar rolini aniqlashga bag'ishlagan, N.A.Moroz<sup>8</sup> esa U.Folknerning 1920-1930-yillardagi romanlarida makon va zamon munosabatlari hamda qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy olamini o'rgangan. G.A. Vetoshkinaning<sup>9</sup> tadqiqotida U.Folknerning "Shovqin va g'azab" va "Absalom, Absalom!" romanlarining intertekstual makonida Gamlet kodi qo'llanilganini tahlil qilgan. M. Naval<sup>10</sup> Uilyam Folknerning "Shovqin va g'azab" romanini XX asr adabiy izlanishlari kontekstida o'rgangan. O.V. Muratxanova<sup>11</sup> dissertatsiya ishida U.Folkner hikoyalarining badiiy xususiyatlarini 1930-yillar prozasida novella turkumining paydo bo'lishiga doir masalalarni ochib bergan.

O'zbek olimlaridan M.N. Xolbekovning<sup>12</sup> U.Folkner hayoti va ijodi, ong oqimiga doir maqolasida, iste'dodli adib, adabiyotshunos olim Nazar Eshonqulning "Mendan "men" gacha kitobida va maxsus maqolasida<sup>13</sup>, M.Jumayevning "Kichkina odamning ulkan qalbi"<sup>14</sup> nomli maqolasida adib ijodi o'rganilgan. Jahon adabiyoti namoyandalari ijodiy faoliyatining faol targ'ibotchisi A.X.Saidovning tashabbusi va so'zboshisi bilan Uilyam Folknerning qissa va hikoyalari alohida kitob holida nashr etilgan<sup>15</sup>. G.Yusupovanning<sup>16</sup> "Narrativ tuzilmalarning kognitiv shakl topishi va ularning badiiy matnda voqelanishi" nomli dissertatsiya ishida narrativ tuzilmalarni kognitiv modellashtirish va ularni badiiy makonda aks ettirish usullarini U. Folknerning "The Sound and The Fury" va "As I Lay Dying" romanlari misolida "ong oqimi" uslubidagi prozasi lisoniy tuzilishining kognitiv asoslari ochib berilgan hamda L.J. Jalilovanning<sup>17</sup> "XX asr boshidagi Amerika satirik novellasining poetikasi" tadqiqotida XX asr Amerika adabiyotdagi janriy yangiliklar muammosi o'rganilgan. O'.H. Mavlonovanning<sup>18</sup> tadqiqotida XX asr adabiyotida kinoyaning poetik jihatlari o'rganilgan. Ammo Uilyam Folkner ijodi janr xilma-xilligi nuqtai nazaridan fundamental tadqiqot

<sup>7</sup> Делазари И.А. Aksiологические модели в структуре художественного мира У. Фолкнера. – Автореф. дисс... канд. филол. наук. - Санкт Петербург, 2003. –254 с.

<sup>8</sup> Мороз Н. А. Пространственно-временные отношения и внутренний мир героя в романах У. Фолкнера 1920-1930-х годов. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 24 с.

<sup>9</sup> Ветошкина Г. А. Гамлетовский код в интертекстуальном пространстве романов У. Фолкнера "Шум и ярость" и "Авессалом, Авессалом!". Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Воронеж, 2007. – 23 с.

<sup>10</sup> Наваль М. Роман Уильяма Фолкнера "Шум и ярость" в контексте литературных исканий XX в. Дисс...канд. филол. наук -Воронеж, 2003.-158 с.

<sup>11</sup> Муратханова О.В. Художественное своеобразие рассказов У. Фолкнера: Формирование новеллистического цикла в прозе 1930-х годов. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2006. -24 с.

<sup>12</sup> Холбеков М.Н. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: "Мумтоз сўз" нашриёти, 2014. – Б. 210-242.

<sup>13</sup> Эшонкул Назар. Мендан "мен"гача. -Тошкент: Академнашр. -2014. Б.-505; Уильям Фолкнер. Онг оркали юракка. – Тошкент: "Жаҳон адабиёти" журнали, 2013 йил, 9(196)-сон. - Б. 194-195.

<sup>14</sup> Jumayev M. Kichkina odamning ulkan qalbi. - <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/uilyam-folkner-qoramusiqa-hikoyasidan-fiqralar-mansur-jumayev-kichkina-odamning-ulkan-qalbi.html>

<sup>15</sup> Фолкнер У. Қисса ва ҳикоялар. - Тошкент: "Янги аср авлоди" нашриёти, 2013. -В.-182.

<sup>16</sup> Юсупова Г. Р. Нарратив тuzilmаларнинг кognитив шакл топиши ва уларнинг бadiий матнда воқеланиши. Филол. ф.ф.д. PhD дисс... автореф. -Самарканд, 2022. – 60 с.

<sup>17</sup> Жалилова Л.Ж. XX аср бошидаги Америка сатирик новелласининг поэтикаси. Филол. ф.ф.д. PhD дисс... автореф. - Бухоро, 2021. – Б. – 54.

<sup>18</sup> Мавлонова Ў.Ҳ. Америка насрида киноянинг поэтик ифода хусусиятлари. Филол. ф.ф.д. PhD дисс... автореф. - Бухоро, 2023. – Б. - 56.

sifatida o'rganilmagan. Shu jihatdan, U. Folkner ijodining janr xilma-xilligi masalasini o'rganish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya Qarshi davlat universitetining "Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Uilyam Folkner ijodining janr xilma-xilligi va ularning badiiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- XX asr Amerika adabiyotidagi realizm, modernizm va postmodernizm yo'nalishlariga xos asarlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida turli janrlarda yozilganligini va adabiy yo'nalishlarning yirik vakillari uslublarining o'ziga xos jihatlarini nazariy o'rganib chiqish va tegishli xulosalar chiqarish;

- Uilyam Folkner badiiy ijodining janriy takomili, taraqqiyot tadrijini kuzatish, uslubidagi alohidalik xossalarini hamda ijodiy kredosini aniqlash;

- adibning "ong oqimi" ta'sirida yozilgan romanlarida ilgari surilgan konsepsiyani aniqlash va "Shovqin va g'azab" ("The Sound and the Fury"), "Absalom, Absalom!" ("Absalom, Absalom!") asarlarida simvolizm oqimiga xos belgilar badiiy tasvirda ustunlik qilishini va gotik uslubning namoyon bo'lishini yoritish;

- Uilyam Folknerning ilk ijodida yaratilgan "Askar mukofoti" romanining avtobiografik roman janriga xos xususiyatlarini aniqlash, Donald Megon obrazi orqali psixologik va jismoniy jarohatlarning butun insoniyat ongiga ta'sirini ochib berish;

- Uilyam Folkner asarlarida uning subyektiv olamida yaratilgan Yoknapatofa okrugining syujet rivojida asosiy o'rin egallashi, makon sifatida universalizmni paydo bo'lishi, voqealar tafsiloti va personajlar hayotida ham umumiylikni yaratganligini qiyoslash yordamida dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Uilyam Folknerning she'rlari, hikoyalari hamda "Askar mukofoti", "Shovqin va g'azab" va "Absalom, Absalom!" nomli romanlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Uilyam Folkner ilk ijodida janr xilma-xilligi tasviri va talqini bilan bog'liq badiiy xususiyatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada germenevtik, lingvopoetik, biografik, badiiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy, tavsiflash, badiiy matn tahlili kabi tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

XX asr Amerika adabiyotida janrlar xilma-xilligining yuzaga kelishida realizm, modernizm va postmodernizm yo'nalishlarining roman janridagi yangilanishlar: avtobiografik, gotik, fantastik, eksperimental romanlar orqali namoyon bo'lganligi dalillangan;



Uilyam Folkner ilk ijodi davomida yozilgan she'r, hikoya va qissalarining badiiy kontseptsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati voqelik diskursi, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari, adabiy ta'sir kabi poetik xususiyatlar orqali voqelanishi aniqlangan;

Uilyam Folkner romanlari syujeti rivojida simvolizmning namoyon bo'lishi obrazlar, motivlar, ijtimoiy muhit, ramzlar orqali va universalizmning xronotop, voqea-hodisalar bayoni, roman personajlari umumiyliigi, ayollar obrazidagi motivlar universaligi, qora tanlilarga munosabat masalasi, zamon va makon mutanosibliigi bilan belgilanishi isbotlangan;

Uilyam Folknerning dastlabki "Askar mukofoti" romanida urush davri voqealari, urushdan keyingi ijtimoiy holat va inson qadri, taqdiri masalasi, "Shovqin va g'azab" romanida ijtimoiy-psixologik munosabatlar talqini, "Absalom, Absalom!" romanida detektiv va gotik uslubning ustivorligi va ularga individual yondashuv tamoyillari asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

XX asr Amerika realizm va modernizm davri adabiyotining janriy xususiyatlari Uilyam Folkner ijodi nuqtai nazaridan o'rganilib, jahon adabiyotshunosligining metodologik bazasi XX asr Amerika adabiyotining modernizm, realizm va simvolizm yo'nalishlarida yaratilgan materiallar bilan boyitilgan;

Uilyam Folkner ijodi XX asr Amerika adabiyotida alohida o'rin egallashi, ilk ijodida turli adabiy janrlarda asarlar yaratganligi, xususan, roman janrida muvaffaqiyat qozonganligiga alohida e'tibor qaratilgan;

XX asr Amerika adabiyotida roman janri tipologiyasining badiiy ijod tendensiyalarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, yozuvchilar ijodidagi janr xilma-xilligini yaratishdagi yangicha yondashuvlar o'rganilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning germenevtik, lingvopoetik, biografik, badiiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy, tavsiflash, badiiy matn tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, XX asr Amerika adabiyotida realizm, modernizm, simvolizm va universalizm kabi adabiy oqim va yo'nalishlarning o'ziga xos jihatlari o'rganishi, adiblarning jamiyatda yuz berayotgan voqealarga munosabati, xilma-xil janrlarda yaratilgan asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, badiiy asar tahlili va talqini, asar qahramonlari imkoniyatlarini belgilash borasida aynan Uilyam Folkner ijodi xususiyatlarini ko'rsatish uchun ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan respublika oliy o'quv yurtlarida "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi", "Jahon adabiyoti", "Adabiy aloqalar", "Zamonaviy xorijiy adabiyot" fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar hamda professor-o'qituvchilar uchun XX asr modernizm davri adabiyotining janriy xususiyatlaridan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Uilyam Folkner ilk ijodidagi janriy xilma-xillik muammosini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

XX asr Amerika adabiyotida janrlar xilma-xilligining yuzaga kelishida realizm, modernizm va postmodernizm yo'nalishlarining roman janridagi yangilanishlar: avtobiografik, gotik, fantastik, eksperimental romanlar orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 1-dekabrda №17.01/224-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, tezislarning hamda Uilyam Folkner ijodidagi janr xilma-xilligi tadqiqi haqidagi olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga erishilgan;

Uilyam Folkner ilk ijodi davomida yozilgan she'r, hikoya va qissalarining badiiy kontseptsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, voqelik diskursi, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funktsiyalari, adabiy ta'sir kabi poetik xususiyatlari orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2021 yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 "O'zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe'l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 19-oktyabrda №04/1-2860-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi asosida lisoniy elementlarning konstruktiv funktsiyalari, adabiy ta'sir kabi poetik xususiyatlarini ifodalovchi elektron poetik lug'atini yaratishda muvaffaq bo'lgan;

Uilyam Folkner romanlari syujet rivojida simvolizmning namoyon bo'lishi obrazlar, motivlar, ijtimoiy muhit, ramzlar orqali va universalizmning xronotop, voqea-hodisalar bayoni, roman personajlari umumiyliigi, ayollar obrazidagi motivlar universalligi, qora tanlilarga munosabat masalasi, zamon va makon umumiyliigi bilan bog'liq xulosalardan Qarshi davlat universitetida S-UZ800-20-GR-0044-raqamli Access Micro Scholarship Program xorijiy loyihada

foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2022-yil 16-dekabrda 04-5127-son ma'lumotnomasi). Natijada ishtirokchilarning Amerika adabiyotshunoslik asoslaridan bilim va ko'nikmalari oshirilgan hamda ta'lim tizimi jarayoni mustahkamlashtirilgan;

Uilyam Folknerning dastlabki "Askar mukofoti" romanida urush davri voqealari, urushdan keyingi ijtimoiy holat va inson qadri, taqdiri masalasi, "Shovqin va g'azab" romanida ijtimoiy-psixologik munosabatlar talqini, "Absalom, Absalom!" romanida detektiv va gotik uslubning ustivorligi va ularga individual yondashuv tamoyillari bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasida "Fayzli kun" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 21-noyabrda 17-05/306-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotning XX asr Amerika adabiyotida Uilyam Folkner ijodida janrlar xilma-xilligi va adib asarlarida modernizm, simvolizm, universalizm hodisasining namoyon bo'lishi haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar ko'rsatuv mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 146 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**XX asr Amerika adabiyotining janr xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, uch fasldan iborat. "*XX asr Amerika adabiyotida adabiy yo'nalishlar va janr taraqqiyoti*" nomli birinchi faslda XX asr Amerika adabiyotidagi adabiy yo'nalishlar va janrlar taraqqiyotini o'rganishning nazariy muammolari tadqiq qilingan.

XX asr Amerika adabiyoti jahon adabiyotiga bebaho hissa qo'shdi. AQSH adabiyoti bo'yicha yirik rus adabiyotshunos professori Y.Zasurskiy amerikaliklar o'z adabiyotini xalqqa, tarixga, fanga, dinga, siyosiy tashviqotga xizmat qildirish borasida ulug'vor faoliyatga ega ekanligini, hayotni mo'tadil qilish, chinakam xalqchil demokratiyani rivojlantirishda Amerika ijodkorlarining zahmati, yuksak badiiy yaratmalari beqiyos ahamiyatga molikligini ta'kidlaydi<sup>19</sup>. Bu davrda realizmning ziddi sifatida maydonga chiqqan "modernizm" XIX asr oxiri—XX asrda vujudga kelgan qator "izm"larni (simvolizm, futurizm, surrealizm, ekzistensializm va absurd adabiyoti, "ong oqimi" adabiyoti, giperrealizm va b.) ham o'z ichiga oladi. XX asrning o'rtalaridan "modernizm" o'rnini "postmodernizm" egalladi. Yuqorida keltirilgan yirik yo'nalishlarda ijod qilgan yozuvchilar ushbu oqimlar ta'sirida paydo bo'lgan ko'plab janrlarda o'z ijod namunalarini yaratgan.

Prof. Sokolov ta'kidlashicha, "Janr muammosi adabiyotshunoslikda eng qiyin masalalardan biri ekanligi allaqachonlar tan olingan"<sup>20</sup>. Badiiy adabiyotning hammaga ma'qul aniq janrlarga ajralishi shu kungacha aniqlanmagan va hozirga qadar bu masala talqin qilib berilmagan"<sup>21</sup> – deydi G.A.Abramovich. Filologiya fanlari doktori, professor U.Jo'raqulovning fikricha: "Har qanday janr adabiy-tarixiy jarayonning mevasi hisoblanadi. Ijtimoiy turmush, unda mavjud bo'lgan madaniy, falsafiy, adabiy-estetik, psixologik omillar janrning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, muayyan janr nazariyasi tadqiq etilar ekan, bevosita uning tabiati, spetsifik xususiyatlari, kanonlari haqida so'z yuritishdan avval ayni jarayonga doir to'rt jihatga e'tibor qaratish lozim. Bular: a) janrning o'rganilishi masalasi; b) janr genezisi, madaniy-tarixiy omillari; v) adabiy jarayon va manbalari tarixi; g) nazariy poetik xususiyatlari bo'lib, bularsiz asar haqida mukammal tasavvurga ega bo'lish mumkin emas"<sup>22</sup>. Olimning mazkur tasniflarini har qanday asar (janr) arxitektonikasi misolida qo'llashni o'rinli va asosli deb qabul qilamiz.

"*Uilyam Folkner ijodining taraqqiyot tadriji*" nomli ikkinchi faslda XX asrning 20-yillaridan boshlab hikoya janri tanqidchilar tomonidan Amerika adabiyotiga xos janr sifatida qabul qilina boshlanganligi, bu davrda ko'plab amerikalik yozuvchilar o'zlarining inson tafakkurini yuksaltiradigan asarlari uchun adabiyot sohasida Nobel mukofotini qo'lga kiritganliklari va bunday adiblar orasida 1949-yilda Nobel mukofotini olgan Uilyam Folkner ham borligi haqida fikr yuritiladi.

Uilyam Folkner ijodining ilk bosqichida deyarli badiiy adabiyotning barcha janrlarda ijod qilgan. Biz quyidagi jadvalda adib ijodining umumiy salmog'ini aks ettirishga harakat qildik.

<sup>19</sup> Засурский Я.Американская литература XX века// М: Издательство Московского университета, 1984, стр.283.

<sup>20</sup> Соколов А.Н. Очерки по истории поэтики XVIII и первой половины XIX века. -М. 1955, - С.5.

<sup>21</sup>Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. -М., 1961. – С. 249.

<sup>22</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика. –Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2015. – Б.5.

## 1.1-jadval.

	She'riy to'plamlari	Hikoyalar to'plamlari	Qissa	Romanlari			Drama
1	Vision in Spring (1921, jami 14ta she'r)	These 13(1931, jami 13ta)	"The Bear" (1942)	Soldiers' Pay (1926)	Mosquitoes (1927)	Sartoris (1929)	'Marionettes' (1920)
2	The Marble Faun (1924, jami 17ta she'r)	Dr. Martino and Other Stories (1934, jami 14ta hikoya)		The Sound and the Fury(1929)	As I Lay Dying (1930)	Sanctuary (1931)	
3	A Green Bough (1933, jami 44 ta she'r)	The Portable Faulkner(1946, jami 18ta hikoya)		Light in August (1932)	Pylon (1935)	Absalom, Absalom! (1936)	
4	Mississippi Poems (1979, jami 12ta she'r va 1ta esse)	Knight's Gambit (1949, jami 6ta hikoya)		The Unvanquished (1938)	The Wild Palms (1939)	The Hamlet (1940)	
5		Collected Stories of William Faulkner (1950, jami 42 ta hikoya)		Go Down, Moses (1942)	Intruder in the Dust (1948)	Requiem for a Nun (1951)	
6		Big Woods (1955, jami 4ta hikoya)		A Fable (1954) The Town (1957)	The Mansion (1959)	The Reivers (1962)	

“Uilyam Folkner badiiy ijodining o‘ziga xosligi” nomli uchinchi faslda Uilyam Folkner ijodining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Adib ilk ijodini she’r yozishdan boshlagan. Folkner “Marmar favn” (1924) va “Yashil novda” (1933) shuningdek, 1919-yildan 1933-yilgacha bosma nashrlarda chiqqan yigirma beshta she’rlarning muallifi. Folknerning dastlabki chop qilingan she’ri “L’Apres-Midi d’un Faune” 1919-yil 6- avgustda “Yangi respublika” jurnalida nashr ettirildi. Folkner ijodining ilk davrida ingliz shoirlari ta’sirida romantik she’rlar yozdi. Ammo yoshi ulg‘aygani sari Folkner she’riyatni ortda surib, prozaga e’tibor qaratdi. Folknerning hikoyalari orasida eng ajoyibi “Emili uchun atirgul” hikoyasi bo‘lib, u o‘z ichiga qadimiy Janubning zaiflashishi bilan bog‘liq muallifning qarashlarini qamrab oladi. Folkner hikoyalaridagi uslub folknershunos olim Donald Kartiganer (Donald Kartiganer, 1937) tomonidan juda yaxshi o‘rganilgan, u Folknerning keyingi romanlarining deyarli hammasi va barbod bo‘lgan dunyoning ko‘rinishlarini alohida parchalarda namoyish etadi, degan xulosaga borgan<sup>23</sup>. Uning qalamiga mansub bir nechta hikoyalari bilan

<sup>23</sup> Kartiganer, Donald. The Fragile Thread: The Meaning of Form in Faulkner’s Novels. - Amherst: University of Massachusetts Press, 1979. - 412 p

o‘zbek kitobxonlari tanish, shuningdek, Folkner o‘zini roman yozishda sinab ko‘rib, 1926-yilda ilk romani “Askar mukofoti”ni yozadi.

Ta’kidlash lozimki, Uilyam Folkner o‘z ijod namunalarini subyektiv olam to‘qima makon Yoknapatofa grafligida umumlashtirdi. Bu ham uning o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvalda adib asarlarida Yoknapatofa okrugi tasviriga qanchalik murojaat qilinganligini keltirdik. Yozuvchi o‘z obrazlarini Amerika janubining tarixi, oilasi, irqi, sinfi va jinsi munosabatlari kabi omillarga asoslanib yaratdi.

## 1.2-jadval.

Yoknapatofa okrugi aks etmagan romanlar	Yoknapatofa okrugi aks etgan romanlar
<p>“Soldiers’ Pay”                      (“Askar mukofoti”),                      “Mosquitoes”                      (“Moskitlar”)                      “Pylon” (“Pilon”)                      “Wild Palms”                      (“Yovvoyi palmalar”)                      “A Fable” (“Masal”)</p>	<p>“Sartoris” (“Sartoris”), “The Sound and the Fury”                      (“Shovqin va g‘azab”), “As I Lay Dying” (“Men o‘layotganimda”), “Sanctuary” (“Ibodathona”), “Light in August” (“Avgustdagi yog‘du”), “Absalom, Absalom!” (“Absalom, Absalom!”), “The Unvanquished” (“Mag‘lublar”), “The Hamlet” (“Qishloq”), “Go Down, Moses” (“Musso, yerga tush”), “Intruder in the Dust” (“Xokni bulg‘agan odam”), “Requiem for a Nun” (“Rohibaga o‘qilgan motam kuyi”), “The Town” (“Shahar”), “The Mansion” (“Qo‘rg‘on”),                      “The Reivers” (“Qaroqchilar”)</p>

Folkner Janubda yaratilgan og‘zaki ijod namunalaridan o‘z ijodida foydalandi, o‘tmish haqidagi afsona va xotiralarni avlodlarga yetkazishda xizmat qildi. Modernist sifatida asarlarida modernizmga xos belgilarini namoyon qildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Uilyam Folkner romanlarining janriy takomili**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tarkib topgan. “*Askar mukofoti*” asarida *avtobiografik romanga xos xususiyatlar*” nomli birinchi faslda romanning badiiy o‘ziga xosligi, janriy xususiyatlari, uslubi, qahramonlarning badiiy qiyofasi, ruhiy holati o‘rganilgan.

Uilyam Folkner o‘zining ilk romani “Askar mukofoti”ni katta zavq bilan qisqa muddatda, bir suhbatda asarni uch-to‘rt haftada, yana bir suhbatda esa uch oyda yozganini aytadi<sup>24</sup>. Minterning fikricha, Folkner romanlari voqealarining ko‘pchiligi eslash va gapirib berishdan iborat. Bunda qadimgi hikoyalar va ulardagi eski iboralar vujudga keltiriladi, saqlab qolinadi va keying avlodlarga yetkaziladi<sup>25</sup>.

“Askar mukofoti” romani markazida urush tugashiga yaqin qolganda yaralangan va dahshatli qiyofaga kelib qolgan uchuvchi Donald Megon turadi. Asardagi ba’zi elementlar Donald orqali Folkner qisman o‘zining hayotida sodir bo‘lgan voqealarni tasvirlagan deyishimiz mumkin, ya’ni unda *avtobiografik*

<sup>24</sup> James B. Meriwether and Michael Millgate, eds., *Lion in the Garden Lion in the Garden: Interviews with William Faulkner, 1926-1962*. Random House, 1968. – P. 62.

<sup>25</sup> David Minter . *William Faulkner: His life and work*. Baltimore and London: The John Hopkins University Press, 1980. - P 57.

roman janriga xos hislatlar mavjud. Asosan, Folknerning yoshligidagi subyektiv portretini topishi mumkin bo'lgan yarador askar Donald Megonning xarakterini o'z ichiga olgan deb o'ylaymiz. Donald Megon personajining avtobiografik ahamiyati tufayli Folknerning hayotida "Askar mukofoti" yozilishidan oldingi yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Uning hayotida 1918 va 1919-yilning boshlarida sodir bo'lgan voqealarni asarda ham uchramiz. Folknerning bolaligidagi sevgilisi (asarda xuddi Emmi singari), rafiqasi bo'lishini orzu qilgan qiz Estel Oldhem 1918-yil 18-aprelda Janubdagi badavlat oilaning farzandi Kornel Franklin bilan oila quradi. Romanda shu holat Donaldda aks etadi, ya'ni u ham rafiqasi bo'lishini xohlagan Sesili Sonders Jorj Farrga turmushga chiqib ketadi. 1919-yil 4-yanvarda urush tugashi bilan, unda qatnasha olmagan Folkner Qirollik Havo Kuchlaridan rasmiy demobilizatsiya hujjatlarini oladi. U Oksfordga qaytib keladi, va o'zini yarador jangovar faxriy deb hisoblab, formasini kiyib, oqsoqlanganicha, urushdan qaytib kelgan amerikalik askarlar bilan ko'rishadi, ular tabiiyki, Folknerni xorijda xizmat qilgan deb o'ylashadi. Romanda Donald Megon ham Qirollik Havo Kuchlarida xizmat qilgani aytib o'tiladi:

*"Look at his wings," Lowe answered. "British. Royal Air Force."*<sup>26</sup> – Ma'nosi: «Qanotlariga qarang»- dedi Lou, «Britaniya Qirollik Kuchlari»

Bobning ikkinchi fasli "*Shovqin va g'azab*" romanida ijtimoiy-psixologik tasvir" deb nomlanadi. Ushbu faslda Uilyam Folknerning "*Shovqin va g'azab*"(1929) romanida Kompson oilasining parokanda bo'lishi haqida batafsil bayon qilinadi. Folknerning to'rtinchi romani bo'lmish "*Shovqin va g'azab*" o'zining chiziqli bo'lmagan syujeti, (bu usul asardagi voqealarni xronologik tartibda tasvirlamaydigan, voqealar o'rtasidagi munosabatning ketma-ketligiga amal qilmaydigan hikoya qilish usuli) tuzilishi va noan'anaviy bayon etish uslubi bilan ajralib turadi. Folknerning ushbu romanida psixologik tasvir ustun turadi. Muallif asarda freydzizm nazariyasini qahramon Benji timsolida gavdalantiriladi. Ma'lumki, psixologik romanda insonning ichki dunyosiga alohida e'tibor beriladi va unda analitik sharh, ramziylik, ichki monolog va ong oqimi aks etadi. Qahramon dunyoni o'rganadi, iztirob chekadi va oxir-oqibat o'zining bolalik yoki o'smirlik chog'ida qiynagan barcha ichki nizolarni tushuna boshlaydi. Yuqorida berilgan ta'rif aynan Benji obraziga taalluqli.

Shuni ta'kidlash lozimki, muallif ushbu romanda Janub aristokrat oilalarining jamiyatda parokandalikka uchrashini bir oila misolida bayon qilgan. Kventinning o'limi hamda Keddining homiladorligi Kompson oilasining tanazzuliga olib keldi, ammo shunga qaramay, qariyb yigirma yil davomida oila saqlanib qoldi. 1928 yil 8 aprelda miss Kventina(Keddining qizi) tog'asining yotoqxonasidan onasining u uchun yuborgan pulini olib g'oyib bo'ladi, bu bilan u o'zi bilan nafaqat pulni oldi, balki Kompsonlar oilasi sharafi ham qiyofasini ham yo'qotdi. Romanning ikkinchi qismi qahramonlardan biri Kventinning o'limi bilan tugaydi, ammo asarda uning o'z joniga qasd qilishi haqida hikoya qilinmaydi; yotoqxonadan chiqib ketayotgan

<sup>26</sup> Faulkner W. Novels 1926-1929. Soldiers' Pay. – New York: Literary classics of the United States, Inc., 2006. - P. - 24.

voqeasida ikkinchi bo‘lim tugaydi, bu esa romanda gotik uslubining mavjudligini ifodalaydi.

“Absalom, Absalom!” romanida detektiv va gotik uslubiga xos jihatlar” nomli uchinchi faslda Uilyam Folknerning janubiy gotik uslubda yozilgan asaridagi roman tipologiyasiga xos bo‘lgan o‘ziga xos jihatlar o‘rganilgan. Bu asar Amerika janubidagi uchta oilaning hikoyasi bo‘lib, undagi voqealar asosan qahramon Tomas Satpen hayotiga alohida e‘tibor qaratiladi. “Absalom, Absalom!”- bu Janubning urf-odatlarini va axloqlarini qattiq qoralaydigan roman. Qarindoshlar, birodarni o‘ldirish, shahvat, shuhratparastlik va qullik haqidagi ushbu asarda Folkner insonning insonparvarlik axloqi doirasidan tashqaridagi ehtiroslar va ambitsiyalari bu asarning mavzulari hisoblanadi. Roman o‘zining ko‘p hikoya qiluvchilari, keng tarqalgan jumalari, ko‘plab neologizmlar va tinish belgilaridan majburiy foydalanishni o‘z ichiga olgan uslub bilan tanilgan bo‘lib, ham olimlarni, ham kitobxonlarni chalkashtirib, muhokama qilish uchun murakkab hisoblanadi.

Roman voqealari Tomas Satpen (1807-1869) oilasining tasviri va 1909-1910-yildagi voqealarni hikoya qilish vositasi orqali Kventin Kompson, Satpenning qayinsinglisi Roza Koldfild, Kventinning otasi va uning Garvarddagi hamxonasi Shriv Makkennon kabi qahramonlar orqali ochib berish uchun dam kelajakka, dam o‘tmishga sayohat qiladi. Ushbu romanning murakkabliklaridan biri hikoyachini aniqlashdir. Romanning har bir bobi o‘zining hikoyachisiga ega. Bu asarning asosiy g‘oyasi Satpenning Jeffersondagi dastlabki faoliyatiga alohida e‘tibor berib, Satpen afsonasini yaratishni o‘z ichiga oladi. Asarda ukaning(Genri) akasini(Charlz Bon) o‘ldirishi romanning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi:

*Now you cant marry him. Why cant I marry him? Because he’s dead. Dead? Yes. I killed him*<sup>27</sup>. -Ma’nosi:Endi unga turmushga chiqolmaysan. Nega? Chunki u o‘lgan. O‘ldimi? Ha. Men uni o‘ldirdim.

Roman gotik hamda detektiv janriga xos uslubda yozilgan bo‘lib, undagi personajlarning hikoyalari asarni yanada jozibali qilib ko‘rsatilgan. Asardagi g‘ayrioddiylik, sirlarga to‘la voqealar va qo‘rg‘ondagi daxshatlar gotik uslubda yozilganidan dalolat beradi:

*Out of quiet thunderclap he would abrupt (man-horse-demon) upon a scene peaceful and decorous.... faint sulphur-reek still in hair, clothes and beard, with grouped behind him his band of wild niggers like beasts half tamed...*<sup>28</sup> - Ma’nosi: Momaqaldiroqning sokingina guldurashi bilan sahnada (odam-ot-shayton) paydo bo‘ldi... oltingugurtning hidi hali ham sochlari, kiyimlari va soqollaridan ufurib turardi, uning orqasida qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlari kabi yovvoyi negrlar to‘dasi to‘plangandi.

Shu bilan birga, Satpen oilasining parokanda bo‘lishi va qo‘rg‘onining yo‘q qilinishi insonning begunoh emasligini va uchinchi, to‘rtinchi avlodlarga ilohiy adolatning kelishi haqidagi buyuk afsonani yodga soladi. Qadim Ahdda Xudoning

<sup>27</sup> Faulkner W. Absalom, Absalom! New-York: Vintage Books, A Division of Random House. 1972. –P.-172.


<sup>28</sup> Faulkner W. Absalom, Absalom! New-York: Vintage Books, A Division of Random House. 1972. –P.-8



g‘azabini qo‘zg‘atadigan zo‘ravonlik bu yerda otaning o‘g‘liga, o‘g‘lining otaga va ukaning akaga qarshi chiqqani haqidagi afsonada qayta tasvirlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Uilyam Folkner ijodiga adabiy oqimlar ta’siri”** deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tarkib topgan. *“Shovqin va g‘azab”* va *“Absalom, Absalom!”* romanlarida simvolizmning namoyon bo‘lishi nomli faslda *“Shovqin va g‘azab”* va *“Absalom, Absalom!”* asarlarida simvolizmga xos xususiyatlar o‘rganilgan. Simvolizm XIX-asr oxirida paydo bo‘lgan Yevropa modernizmining birinchi adabiy oqimlaridan biri. Simvolizm estetikasining asoslari Pol Verlen (Paul-Marie Verlaine, 1844 – 1896), Artur Rimbaud (Jean Nicolas Arthur Rimbaud, 1854–1891), Stefan Mallarme (Stéphane Mallarmé 1842–1898) tomonidan qo‘yilgan<sup>29</sup>. Simvolizmdagi ramz bu hodisaning mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi obyekt yoki so‘z sifatida qo‘llaniladi. A.F. Losevning fikricha, “har bir ramz voqelikning jonli in’ikosidir”<sup>30</sup>. Simvolistlar orasida ramz, birinchi navbatda, “bu dunyoning har bir obyekt va mavjudotidagi boshqa dunyoning sirli in’ikosi” sifatida tushunilgan.

Uilyam Folkner juda ko‘p fransuz simvolist –yozuvchilari asarlarini mutolaa qilgan va bu adibning shu romanlarida simvolizm oqimi xususiyatlarini aks etgan. X. Richardson (H. E. Richardson) Folknerni “keng qirrali mintaqaviy yozuvchi” deb atagan holda, ushbu g‘oyalar uning nasriy, simvolistik va boshqa uslublarda ijod etganidan dalil deb hisoblashimiz mumkin<sup>31</sup>. Quyida *“Shovqin va g‘azab”* asaridan parchalarda simvolizmga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz:



### 1-rasm. Keddining tabiat bilan uyg‘unligi

